

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

II Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 2-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-1-7

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 2-son (oktyabr, 2025-yil). – 25 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Aliyev Nodirbek

CHEGARAVIY MASALALARNI YECHISH UCHUN SUN'YI INTELLEKT ELEMENTLARI ASOSIDAGI GIBRID INTEGRATSIYA MODELİ	4-9
---	-----

FILOLOGIYA FANLARI

Mustafayev Ozod

RAQAMLI DAVR ADABIYOTI: O'ZBEKISTONDA INTERAKTIV IJOD VA ONLAYN MUHIT SHAKLLANISHI	10-13
---	-------

Islamova Nozima

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA NEYROLINGVISTIK YONDASHUVLARNING INSON KAPITALI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	14-17
--	-------

Norbekova Gulrux

J. K. ROULINGNING "HARRY POTTER" ASARLARIDAGI AFSUN VA SEHR-JODUGA OID LEKSIK BIRLIK LARNING KONSEPTUAL TADQIQI	18-21
--	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARDA REFLEKTIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AMALIY QO'LLANILISHI.....	22-24
---	-------

J. K. ROULINGNING "HARRY POTTER" ASARLARIDAGI AFSUN VA SEHR-JODUGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL TADQIQI

Norbekova Gulrux Xusan qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada J. K. Roulingning "Harry Potter" asarlarida uchraydigan afsun va sehr-joduga oid leksik birliklarning lingvokulturologik va konseptual xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda "incantation", "spell", "charm", "curse" kabi birliklarning semantik farqlari, ularning madaniy va psixologik mohiyati, shuningdek, ingliz xalqining afsun va sakral tafakkuri bilan bog'liqligi yoritilgan. Maqolada afsunlarning rituallar, imo-ishoralar, sehrli buyumlar va iroda kuchi orqali namoyon bo'lishi "Harry Potter" asarlari misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: afsun, sehr-jodu, incantation, spell, charm, curse, lingvokulturologiya, sakral madaniyat, rituallar, konseptual tahlil.

CONCEPTUAL ANALYSIS OF LEXICAL UNITS RELATED TO MAGIC AND ENCHANTMENT IN J.K. ROWLING'S "HARRY POTTER" SERIES

Gulrux Xusan qizi Norbekova

Doctoral candidate, Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the linguocultural and conceptual characteristics of lexical units related to magic and enchantment found in J.K. Rowling's "Harry Potter" series. The study examines the semantic distinctions of terms such as "incantation," "spell," "charm," and "curse," their cultural and psychological significance, and their connection to the English people's beliefs in magic and sacred traditions. The article illustrates how enchantments manifest through rituals, gestures, magical objects, and the power of will, using examples from the "Harry Potter" series.

Key words: enchantment, magic, incantation, spell, charm, curse, linguoculturology, sacred culture, rituals, conceptual analysis.

Kirish. Afsun va sehr-jodu insoniyat tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri bo'lib, ular insonning irratsional fikrlash jarayonini, qo'rquv, ishonch va umid o'rtasidagi ichki kurashini ifodalaydi. Turli xalqlarda afsunning maqsadi o'xshash bo'lib, u inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash, ruhiy xavfsizlikni ta'minlash va noma'lum kuchlarga ta'sir o'tkazish istagidan kelib chiqadi. Shu jihatdan, afsunlar nafaqat folklor va marosimlarning, balki til, madaniyat va mentalitetning ham ajralmas qismi hisoblanadi.

J. K. Roulingning "Harry Potter" asarlarida afsunga oid birliklar nafaqat sehrli olamni yaratish vositasi, balki ingliz xalqining qadimiy afsunlash an'analari, mifologik tasavvurlari va lingvokulturologik merosining badiiy ifodasidir. Muallif sehr-jodu jarayonini nafaqat og'zaki (inkantatsiya) shaklda, balki imo-ishoralar, diqqat markazidagi buyumlar (wand, cloak, mirror) va iroda kuchi orqali ifodalagan. Afsunlarning bu ko'rinishlari tildagi semantik boylikni, qadimiy so'zlarning konseptual qatlamini ochib berishga yordam beradi. Shu sababli, "Harry Potter" asarlaridagi sehr-jodu terminlarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish afsunning zamonaviy badiiy va madaniy talqinini yoritish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Duo (Incantation): Og'zaki aytiladigan, kuylanadigan yoki pichirlab gapiriladigan so'zlar yoki iboralar hisoblanadi [3]. Misol uchun "*Abracadabra*" — bu qadimdan ma'lum

bo'lgan sehrli so'z bo'lib, ko'plab madaniyatlar va davrlarda afsungarlik va shifo amallarida qo'llanilgan. Ushbu so'z o'zining sirli kuchi va tarixiy ma'nolari bilan afsun va sehr-jodu olamida mashhur bo'lib kelgan. Ushbu so'zning kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar mavjud. Arameychada "Avra kehdabra" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "men gapiraman va yarataman" ma'nosini bildiradi [2]. Lotincha yoki yunonchada esa bu so'zning "Abraxas" nomi bilan bog'liqligi aytiladi, bu qadimiy yunon gnostik ilohiyati bilan bog'liq [7]. Ibroniylar tilida bu so'z "Ab" (Ota), "Ben" (O'g'il), va "Ruach ha-Kodesh" (Muqaddas Ruh) so'zlaridan kelib chiqqan deb ham taxmin qilinadi. Ushbu so'z ilk bor milodiy II asrda rim shifokori Serenus Sammonicus yozgan asarlarda uchraydi. U "abracadabra"ni kasalliklarni davolash uchun afsun sifatida ishlatishni tavsiya qilgan. So'z uchburchak shaklida yozilib, bo'yinga tumor sifatida taqilgan. Sehrgarlikda "abracadabra" so'zi ko'pincha afsungarlar tomonidan afsunlarning boshlanishida ishlatiladi. U universal sehrli kuchni anglatadi. Tabobatda esa u salbiy energiyani, kasalliklarni yoki yomon ruhlarni yo'q qilish uchun ishlatilgan [8]. Zamonaviy madaniyatda "abracadabra" ko'pincha mo'jiza yoki sirli hodisalarga ishora qilish uchun ishlatiladi [4].

Bundan tashqari, *harakat yoki imo-ishora (gesture or motion)* orqali amalga oshiriladigan sehr-jodu turi ham mavjud bo'lib, bunga sehrni bajarish bilan birga qilinadigan qo'l harakatlari yoki tana harakatlari kiradi. Misol uchun, sehrli tayoqni tebratish, qo'l belgilari yoki marosimiy raqslar orqali sehr-joduni amalga oshirish. "Harry Potter" asarida esa, bu kabi holat uchun ko'plab holatlarni topish mumkin. Masalan, "*Vingardium Leviosa*" afsuni biror bir obyektga sehrli tayoqcha yordamida yerdan yuqoriga ko'tarish uchun ishlatiladigan afsun hisoblanadi. "Garri Potter va afsonalar toshi" asarida Hogvards maktabining yangi o'quvchilari sehrgarlik darslarining eng dastlabki kunlarida, bu afsun orqali patni yuqoriga ko'tarish uchun harakat qilinayotgan vaziyati aks ettirilgan. Yana bir misol "*protego*" afsuni bo'lib, sehrli tayoqcha yordamida doira shaklida yoki keskin yuqoriga harakat qilish orqali himoya qalqoni yaratish uchun ishlatiladi. Bu afsundan "Harry Potter and the Order of the Phoenix" asarida Dumbledore va Voldemort o'rtasidagi duelda Dumbledore "*Protego*" afsunini ishlatadi:

"*Protego!*" The spell burst from Dumbledore's wand, and the force of it knocked back the jet of green light. The statue of the witch jumped in front of Harry, shielding him from the curse. [J. K. Rowling. *Harry Potter and the Philosopher's Stone*. Bloomsbury Publishing. 1997. p. 215].

Diqqat markazidagi buyum (focus object) orqali amalga oshiriladigan sehr-joduga sehr energiyasini yo'naltirish uchun ishlatiladigan narsalar va buyumlar kiradi. Masalan, sehrli tayoqlar, tumorlar yoki kitoblar sehrli hatt-harakatni amalga oshirish uchun vosita sifatida ishlatiladi. "Harry Potter" asaridagi bu buyumlar nafaqat sehr-joduni yo'naltirish, balki hikoyani rivojlantirish va sirli dunyoni yanada boyitish uchun ishlatilgan. Har bir obyektning o'ziga xos tarixi va roli bor. Bu narsalar sehr olamining jonli va haqiqiy ko'rinishini yaratishga yordam beradi. Misol uchun, *Xogvartsning taqsimlovchi qalpog'i*- o'quvchilarni Xogvarts fakultetlariga bo'lish uchun ishlatiladigan qalpoq bo'lib, u yordamida Garri Gryffindorga bo'lingan.

Keyingi buyum *sehrli xarita (Marauder's Map)* bo'lib, Xogvartsda kim qayerda ekanligini ko'rsatadi. U yashirin va sirli harakatlarni amalga oshirishda xizmat qilgan. Bu xarita Garriga Fred va Jorj Uizli tomonidan topshirilgan.

Navbatdagi buyum - *Sehrli oyna (Mirror of Erised)* bo'lib, foydalanuvchining eng chuqur istaklarini ko'rsatishga yordam beradi. Garri bu oyna yordamida o'z ota-onasini ko'radi.

Sehrli quticha (Time-Turner)- asarda ishlatilgan sehrli buyumlardan biri bo'lib, u vaqtni boshqarish imkonini bergan. "Azkaban mahbusi" kitobida Germiona vaqtga sayohat qilish uchun foydalangan. [Rowling, J. K. *Harry Potter and the Prisoner of Azkaban*. London: Bloomsbury Publishing, 1999. P. 47].

Sehrli kiyim (invisiblity cloak)- ko'rinmas bo'lish imkonini beruvchi kiyim sifatida asarda aks ettirilgan bo'lib, Garrining otasi Jeyms Potterdan meros bo'lib qolgan. Bu uchta O'lim tuhfas (Deathly Hallows) dan biri. *Uchar supurgi (Quidditch Broomsticks)*- Garrining "Firebolt" supurgisi. Bu supurgidan uchish uchun ishlatilgan va Quidditch o'yinlarida muhim ahamiyatga ega.

Kuchli istak yoki iroda (intention or will) orqali ifoda qilinadigan afsunlar. Bu kabi sehr noverbal xususiyatga ega bo'lib, sehrarning maqsadi yoki aqliy diqqati bilan chambarchas bog'liq holda ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bu kabi sehr sehrar tomonidan kerakli natija aniq tasavvur qilingandagina ish beradi. Masalan, "Garri Potter va zoti past shaxzoda" kitobida Snape Garri bilan duel sahnasida Snape Garri Potterga hujum qilishga imkon bermasdan, kuchli iroda va niyat bilan bir nechta noverbal afsunlarni tez va samarali ishlatadi. [Rowling, J. K. *Harry Potter and the Half-Blood Prince*. London: Bloomsbury Publishing. 2005. P. 74]. Garri esa ushbu vaqtda hali noverbal afsunlarni o'rganish jarayonida bo'lganligi sababli, bu borada zaiflik ko'rsatadi. Bu yerda Snape o'zining g'oyat mustahkam diqqat-e'tibor va iroda kuchi bilan hech qanday ovoz chiqarmasdan afsunlarni ijro etadi. Ushbu holat kuchli iroda va niyatning afsunni muvaffaqiyatli ijro etishda qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatadi. Noverbal afsunlar ovozli formulalarga qaraganda ko'proq kuchli konsentratsiya va ichki energiyani talab qiladi. Afsun ingliz xalqining ruhiy holati, ishonch tizimi va rituallariga bog'liq bo'lib, u madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Turli madaniyatlarda afsunlarning ko'rinishlari farq qilsa-da, ularning asosiy maqsadi bir xil: inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash, qo'rquvni yengish va o'z hayotini yaxshilash [1]. Afsunlarning bu funksiyalari xalq og'zaki ijodida, rituallarda va folklorda aks etadi. Shuningdek, afsun xalqning ma'naviy qadriyatlarini va ishonch tizimini chuqurroq tushunishda kalit vazifasini bajaradi. Afsunlar nafaqat rituallar uchun, balki tildagi qadimiy izlarni o'rganishda ham muhim obyekt hisoblanadi [5]. J. Rowling o'z asarlarida afsunlar orqali qadimgi so'zlarning semantik xususiyatlarini tiklashga harakat qilgan deya olamiz. Bu esa afsun sifatida tanlangan leksemalarni kontekstual mazmuniga o'z navbatida ingliz xalqining til va madaniyatini, ularning dunyoqarashini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Ushbu asardagi afsunlar sehr-jodu bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro o'xshashlik va farqlarga egaligi bilan ajralib turadi. Sehr-jodular odatda g'ayritabiiy kuchlarni tasvirlovchi so'zlar, harakatlar va buyumlardan foydalanishni o'z ichiga oladi [6]. Bularning har biri, o'z o'rnida, sehr va afsunlarning samarali ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotlarda va, masalan, *Garri Potter* kabi asarlarda, bu elementlarning har biri sirli dunyoning jonli ifodasi sifatida tasvirlanadi.

Xulosa. J. K. Roulingning "Harry Potter" asarlarida afsunga oid leksik birliklar "charm", "spell", "incantation", "curse" ingliz xalqining qadimiy e'tiqodlari, ritual madaniyati va sakral dunyoqarashining lingvokulturologik izlarini o'zida mujassam etadi. Bu birliklar nafaqat fantastik obraz yaratish vositasi, balki tilning konseptual qatlamlarini, insonning irratsional tafakkuri va madaniy xotirasini ifoda etuvchi lingvistik kod sifatida namoyon bo'ladi.

Afsunlarning turlari og'zaki duo, imo-ishora, diqqat markazidagi buyum (sehrli tayoq, tumor, oyna) va iroda kuchi orqali amalga oshiriladigan sehr muallif tomonidan badiiy tizim sifatida uyg'unlashtirilgan. Ushbu elementlar orqali Rouling qadimgi afsunlarning zamonaviy talqinini berib, ingliz tilida afsunga oid qadimiy semantik qatlamni qayta jonlantirgan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "Harry Potter" asarlaridagi afsun va sehr-joduga oid birliklarni o'rganish lingvokulturologik, semantik hamda psixologik jihatdan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ular til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, inson tafakkurining sakral manbalarini va so'z qudratining madaniy mohiyatini ochib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Barthes, R. Mythologies. Hill and Wang. 1981. P. 64.
2. Conley C. Magic Words: A Dictionary. – Weiser Books, 2008. P. 47.
3. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Bloomsbury publishing. 2012. P. 763.
4. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Bloomsbury publishing. 2012. P. 5.
5. Propp, V. Morphology of the Folktale. University of Texas Press. 1968. P. 152.
6. Гильмутдинова Л. Р. Лексика заговоров и заклинаний в татарском языке: дис. – Казань: [Ин-т лит., яз. и искусства им. Г. Ибрагимова Акад. наук Респ. Татарстан], 2004. С. 24.
7. Дворецкий И. Х. Латино-русский словарь. .: Дрофа, 2009. 57 с.
8. Хабибуллина Ф. Я. и др. Интернациональный характер заклинаний медицинской тематики на латинском языке в романах о Гарри Поттере //Актуальные вопросы формирования межкультурных компетенций в современном образовании. – 2019. – С. 121

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 2-son (oktyabr, 2025-yil). – 25 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 13-oktyabr

ISBN-978-9910-8337-1-7

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.